

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati hamda  
uning tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘yicha tartib-taomillarning samaradorligini  
monitoring va nazorat qilish  
USLUBIYOTI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Uslubiyot “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki idoraviy hujjati hisoblanadi. Shuningdek, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiyotda **monitoring** deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida, tekshirish yoki kuzatish tushuniladi. Shuningdek, **nazorat** deganda tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Jamiyatning ichki idoraviy hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda – monitoring va nazorat) Jamiyatning Komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

5. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Jamiyat faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning etarliligi va korrupsiyaga qarshi tatbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Jamiyatning korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini takomillashtirish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarning bajarilmaganligini aniqlash;

Jamiyatda avvalgi o'tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish.

6. Ushbu Uslubiyot maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**kontragent (shartnomaviy sherik)** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiyaviy xatti-harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk, mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga qarshi tizim** – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

**relevant xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan axborot;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

## **II. Monitoring va nazorat o'tkazish yo'nalishlari va tadbirlari**

7. Jamiyatda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha korrupsiyaga qarshi **monitoring** o'tkaziladi:

idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to'g'risidagi axborot mavjudligi monitoringi;

Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

8. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazorati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talablarva tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

### **III. Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim monitoringini o‘tkazish tartibi**

9. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimning aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi Komplayens xizmati tomonidan doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga oid talablarni (masalan, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro aloqador tashkilotlar tavsiyalari va boshqalar) kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bunda, zarurat tug‘ilganda Komplayens xizmati monitoring yakunlari bo‘yicha Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki idoraviy hujjatlarni o‘zgartirish yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat Boshqaruv raisi - Bosh direktoriga kiritadi.

10. Ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining korrupsiyaviy xatti harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi, Jamiyat axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida xodimga aloqador relevant xabar aniqlanganda, Jamiyatdagi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va o‘doh-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruv (yoki o‘rganishi) o‘tkazish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.

11. Jamiyat xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari to‘g‘risida xabardorligini tekshirish Komplayens xizmati tomonidan bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xodimlarning xabardorligi mazkur uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablaridan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o‘tkazilib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tanlov asosida Jamiyat xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni Jamiyatning turli tuzilmalaridan turli lavozimlarni egallagan 10 kishi);

korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va Jamiyat talablariga muvofiq savollar ro‘yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar - keyslarni echish bilan, savollarning minimal soni 10 ta bo‘lib, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);

javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;

natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.

12. O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborot 2-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

#### **IV. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish**

13. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funktsiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan munosabatlarga nisbatan Jamiyatda joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

15. Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat perimetriga quyidagi jarayonlar kiritilishi mumkin:

xaridlar bo‘yicha faoliyat;

sovg‘alar, xizmat safarlari xarajatlari;

moliyaviy mablag‘larni sarflanishi;

personalni boshqarish (kadrlarni tanlash, tayinlash, xizmat lavozimini, razryadini, kategoriyasini oshirish, lavozim okladi yoki maoshini oshirish, qo‘shimcha ustama yoki kontrakt summasini oshirish, mukofotlash yoki boshqa ko‘rinishdagi rag‘batlantirish).

16. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko‘rsatilgan ro‘yxati har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko‘ra, Komplaens xizmati tomonidan ko‘rib chiqiladi va agar lozim bo‘lsa, korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo‘lgan yoki Jamiyat uchun dolzarb bo‘lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Jamiyat Boshqaruv raisi - Bosh direktori yoki uning mas‘ul o‘rinbosari, Jamiyatning tegishli bo‘limlari bilan kelishilgan holda, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi.

17. Bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Jamiyatning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan chora-tadbirlar va nazorat rejasi bir kalendar yilga mo‘ljallab Komplayens xizmati tomonidan joriy yilning 1-fevraliga qadar shakllantiriladi va ushbu Uslubiyotda ko‘rsatilgan (15 va 16-bandlar) Jamiyatning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo‘lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ichki idoraviy hujjatida ko‘rsatilgan, mehnat resurslari bilan ta‘minlangan holda qonunbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali, Jamiyat Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruvidan olingan joriy ko‘rsatmalarga ko‘ra, Komplayens xizmati tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

19. Tayyorlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi 15-fevralga qadar Jamiyat Boshqaruv raisi - Bosh direktori yoki uning tegishli o'rinbosari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

20. Jamiyatda rejadani tashqari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

agar Jamiyat rahbarining tegishli buyrug'i mavjud bo'lsa;

Jamiyatda o'tkazilgan boshqa tekshiruvlar (shu jumladan rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiya xatarlari aniqlanganda;

aloqa kanallari orqali tegishli xabar olingan taqdirda.

21. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o'tkazilib, shu jumladan, korrupsiyaviy harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalar ma'lumotlarini tovarlarni qabul qilish va topshirish hujjatlari yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish hujjatlari bilan solishtirish;

tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va hujjatlarda belgilangan tartibda solishtirish;

kontragentni yoki Jamiyatda ishlashga nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosada aks ettirishning to'liqligini, tahlil qilish uchun taqdim etilgan va axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma'lumotlarning to'liqligini tekshirish, shuningdek, kontragent yoki ishlashga nomzodning shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlari va tekshiruvdan o'tgan shaxsning ma'lumotlarining muvofiqligini tekshirish;

kontragent va Jamiyat, shu jumladan, muvofiqlashtiruvchi shaxslar tomonidan shartnoma boshqa ma'muriy hujjatlar imzolovchilarining vakolatlari mavjudligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo'yicha summani buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

Jamiyat yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarida tuzatish, o'chirish, soxtalashtirish belgilari yo'qligini tekshirish;

qonun hujjatlariga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e'lonlarning mavjudligini tekshirish;

paydo bo'layotgan masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va izohlar olish uchun Jamiyat xodimlari bilan suhbat yoki tushuntirish xatlari olish.

22. Nazorat tadbirlari yakunida ma'lumotnoma tuziladi, u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o'z ichiga olishi lozim va ularda, odatda, quyidagilar ko'rsatiladi:

**Kirish qismida:**

har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;

nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro'yxati, nazoratni o'tkazishga asos yoki shubhali holat;

nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas'ul bo'lgan bo'limlar va shaxslar ro'yxati;

hisobotni tuzish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning F.I.Sh.

**Tavsiflovchi qismida:**

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillar bo'yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;

Jamiyat korrupsiyaga qarshi tizimining aniqlangan qoidabuzarliklari va kamchiliklari, shu jumladan, kamchiliklarning paydo bo'lishi yoki rivojlanishiga hissa qo'shgan sabablar va sharoitlar.

**Yakuniy qismida:**

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda korrupsiya xatarlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan normalari, Jamiyatning ichki hujjatlari ko'rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;

nazorat o'tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.

23. Ma'lumotnomaga kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar, havolalar va ko'chirmalar nusxalari (imkoni bo'lsa) ilova qilinishi kerak.

24. Ma'lumotnoma yoki uning qisqa mazmuni Jamiyat Boshqaruv raisi - Bosh direktoriga yoki uning mas'ul o'rinbosariga taqdim etiladi (yoki axborot beriladi) hamda o'tkazilgan nazorat to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi.

**V. Yakuniy qoidalar**

25. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

26. Jamiyat markaziy apparati (boshqarmasi), bosh boshqarma, boshqarma, bo'lim hamda tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida Komplayens xizmatiga tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va  
uning tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-  
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish  
**USLUBIYOTI**  
1-ilova

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining  
korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish  
TIZIMI**

<b>T/r</b>	<b>Tekshiruv yo‘nalishi</b>	<b>Tekshiruv tadbirlari</b>
1.	Jamiyat xodimlariga odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablariga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn, oflayn) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: a) tekshiruvda qatnashish uchun jamiyat xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – jamiyatda turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – kamida 10 nafar); b) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin); v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish; g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va  
uning tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-  
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish  
USLUBIYOTI  
2-ilova

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘yicha tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish  
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy)	Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari	Mas‘ul ijrochi	To‘g‘rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash</b>								
1.	Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash</b>								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						
4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						



5.	Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						